



UDK:94(575.1):636.1

Abdullo RAIMOV,

Tayanch doktorant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston

E-mail: abdullaraimov975@gmail.com

PhD B.Axmedov taqrizi asosida

QORABAYIR OT ZOTINING TARIXIY-GENETIK SHAKLLANISHI VA TIZIMLI SELEKSIYASI TARIXI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek xalqining boy chorvachilik madaniyati hamda xalq seleksiyasi mahsuli bo'lgan qorabayir zotli otlarning yaratilish tarixi, zotning kelib chiqishining turli irsiy omillaridagi liniya va oilalarning genetik xilma-xilligi arxiv ma'lumotlari asosida batafsil yoritilgan. Zotni takomillashtirishda ishtirok etgan qimmatli nasl xususiyatlariga ega bo'lgan liniya va oilalar hamda ularning kelib chiqishi to'g'risidagi muhim ma'lumotlar tarixiy-genetik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Qorabayir zoti, axaltaka zoti, liniya, ayg'ir, biya, toy, seleksiya, nasl, genotip, fenotip, chorvachilik.

ИСТОРИЯ ИСТОРИКО-ГЕНЕТИЧЕСКОГО ФОРМИРОВАНИЯ И СИСТЕМНОЙ СЕЛЕКЦИИ КАРАБАЙРСКОЙ ПОРОДЫ ЛОШАДЕЙ

Аннотация

В данной статье на основе архивных данных подробно освещаются богатая животноводческая культура узбекского народа и история создания карабайрской породы лошадей, являющейся продуктом народной селекции. Также детально рассматривается генетическое разнообразие линий и семейств в контексте различных наследственных факторов происхождения породы. С историко-генетической точки зрения проанализированы ценные племенные характеристики линий и семейств, участвовавших в совершенствовании породы, а также представлены важные сведения об их происхождении.

Ключевые слова: Карабайрская порода, ахалтекинская порода, линия, жеребец, кобыла, жеребенок, селекция, племя (наследственность), генотип, фенотип, животноводство.

THE HISTORY OF HISTORICAL-GENETIC FORMATION AND SYSTEMATIC SELECTION OF THE KARABAIR HORSE BREED

Annotation

Based on archival data, this article provides a detailed overview of the rich livestock-breeding culture of the Uzbek people and the history of the creation of the Karabair horse breed, which is a product of folk selection. The genetic diversity of lines and families within various hereditary factors of the breed's origin is comprehensively highlighted. From a historical-genetic perspective, the valuable breeding characteristics of the lines and families involved in the improvement of the breed, as well as crucial information regarding their origin, have been thoroughly analyzed.

Key words: Karabair breed, Akhal-Teke breed, line, stallion, mare, foal, selection, lineage (offspring), genotype, phenotype, livestock breeding.

Kirish. Yilqichilik – chorvachilikning eng qadimiy va muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, dunyoda texnika va texnologiyalarning shiddatli rivojlanishiga qaramasdan, hozirgi kunda ham xalq xo'jaligida o'zining tarixiy o'rini yo'qotgan emas. Aholini qimmatli oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, qazi, sut, qimiz) hamda yengil sanoatni teri xomashyosi bilan ta'minlashda, insonlar o'rtasidagi og'ir kasalliklarni (ayniqsa, sil kasalligini) davolashda yilqichilik muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tibbiyot an'analari ot qon zardobidan turli xil biologik preparatlar tayyorlashda keng foydalanib kelingan. Shuningdek, otda yurish insonga estetik rohat bag'ishlaydi va salomatlikni mustahkamlaydi.

Insoniyatni yuksak madaniyat va taraqqiyot cho'qqilariga erishishda ot insonning eng ishonchli yo'ldoshi, ko'makdoshi bo'lgan bo'lib, odamlarning mushkulini oson qilishda uning o'rni alohidadir. Bugungi kunda ham otlardan xalq xo'jaligida turli maqsadlarda: ishchi kuchi va transport vositasi sifatida, xizmat sohasida, ekoturizm, naslchilikda, sport musobaqalarida (klassik va milliy o'yinlarda) keng foydalaniladi. Xalq seleksiyasi vositasida asrlar davomida yaratilgan, nodir xususiyatlarga ega bo'lgan qorabayir zot otlari o'zining qator biologik xususiyatlari bilan boshqa zotlardan ustunlikka ega. Ular mahalliy tog' sharoitiga yaxshi moslashadi, issiq va sovuqqa o'ta bardoshli bo'lib, poygada,

ayniqsa, uzoq masofaga chopishda, to'siqlardan sakrab o'tishda boshqa chet el zotlaridan aslo qolishmaydi. Milliy ot sporti musobaqalarida esa unga tenglashadigan zoti topilmaydi. Ulardan nafaqat salt minishda, balki qishloq xo'jaligi ishlari va yuk tashishda ham keng foydalanish mumkin. Chunki mazkur zot otlarining chaqqonligi past-baland joylarda va tog'li hududlarda bemalol yurish imkonini beradi. O'lkamizning tabiiy-iqlimi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari chopqir, kuchli va ishchan otlarni yaratishni talab qilganligi natijasida, ushbu zot xalq seleksiyasi asosida shakllangan.

Respublikamizda qorabayir ot zotlarida tadqiqotlar o'tkazgan olimlarning fikriga ko'ra, u o'ta chayir bo'lib, qora terga tushsa ham charchamaydigan, ozuqa tanlamaydigan, pishiq zot hisoblanadi. Tarixan Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari qorabayir yilqichiligining asosiy markazi bo'lgan. Lekin keyingi yillarda qorabayir zot otlarining xo'jalik foydali belgilarini yaxshilash, zotni takomillashtirib borishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning yetarli darajada olib borilmaganligi, seleksiya-naslchilik ishiga bo'lgan e'tiborning kamayishi natijasida zot ichidagi tizim (liniya) va oilalar yo'qolib borayotgan. Buning oqibatida qorabayir zot otlarini yaxshilash, yangi tizim va oilalarni yaratish, genofondini sof holda saqlashning seleksiya-genetik asoslari to'liq ishlab chiqilmagan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish,

zotni takomillashtirish, nasl xususiyatlarini yaxshilash, saralash tadbirlarini o'tkazish hamda zamonaviy otchilik majmualarida asrash va oziqlantirish texnologiyasini ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur zot tanasining biroz kichik bo'lishi – kelgusida takomillashtirishni talab etadigan asosiy xususiyat hisoblanadi. Qorabayir zot otlari genofondini takomillashtirishning seleksiya-genetik asoslari maxsus tadqiqotlarda o'rganilmagan va ishlab chiqilmagan edi.

Metodlar. Mazkur muammoni ilmiy asoslangan yechimini topish va uning nazariy asoslarini ishlab chiqish maqsadida, ushbu zot otlari urchitib ko'paytirilayotgan xo'jaliklarda 2017–2022-yillar mobaynida tadqiqotlar olib borildi. Izlanishlarning asosiy maqsadi - qorabayir zotining hozirgi genofondi holatini o'rganish va zot ichidagi genetik xilma-xillikni saqlashning seleksiya-genetik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasida hamda quyidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi xonadonlarida olib borildi: Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi "Qorabayir otchilik majmuasi"da (n=260 bosh); Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumanidagi "Qorabayir" harbiy yilqichilik xo'jaligida (n=150 bosh); Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumanidagi "SARVARBEK-MF" fermer xo'jaligida (n=160 bosh); Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi "Temurbek karvoni" fermer xo'jaligida (n=200 bosh).

Tadqiqotlar xo'jaliklardagi birlamchi ma'lumotlar, zootehnika hujjatlar va O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasidagi ma'lumotlar asosida tashkil etildi. Ishning me'yoriy-tarixiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-iyundagi PQ-3057-son, 2019-yil 18-fevraldagi PQ-4194-son, 2021-yil 11-martdagi PQ-5024-son, 2021-yil 5-avgustdagi PQ-5211-sonli qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 517-sonli qarorlarida belgilangan tarixiy vazifalar qabul qilindi.

Insoniyat tarixida ilk bor bug' mashinasini kashf qilgan Jeyms Uatt ham o'zi yaratgan ixtirosini namoyish qilar ekan, yangi qurilma kuchini ot kuchiga tenglashtirgan va shundan buyon zamonaviy avtomobillar motorining quvvati ot kuchi birligida hisoblanadi. Tarixchi olimlarning fikriga ko'ra, qadimgi davrlardayoq O'rta Osiyo mintaqasida boqib ko'paytirilgan afsonaviy "samoviy otlar" o'zining noyob xususiyatlari bilan olamga mashhur bo'lgan. O'sha davrlardagi otlar hozirgi o'lkamizdagi qorabayir, axalteke va laqay otlarining dastlabki avlodlari edi. Yurtimizda ham ot bilan juda qadim zamonlardan buyon ajdodlarimiz shug'ullanib kelganlar va uylar tarbiyalagan afsonaviy otlarning dovruqi butun dunyoga taralgan. Xalqimizning asrdan-asrga o'tib kelayotgan dostonlarida va rivoyatlarida, ulug' bobokalonlarimizning asarlarida ham ot timsoli yuksak mavqeda madh etib kelingan hamda o'ziga xos tarzda qadrlangan. Qorabayir zoti – o'zbek xalqining tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan madaniy meros va xalq seleksiyasi mahsulidir.

Natijalar. "Qorabayir" so'zining etimologik ma'nosi borasida turli ilmiy manbalarda olimlar tomonidan turlicha ta'riflar keltiriladi. Masalan, ayrim olimlar "qora" - sof, "bayir" – jaydari, ya'ni sof jaydari ot, deb izohlashsa, ba'zilar arabcha talqinda "qora" ot, "bayir" esa tuya, ya'ni tuya kabi baquvvat ot deb ta'riflashadi. Mazkur otlarning tusi asosan to'riq, jiyron, ko'k, qora, chavkar va samandir. Ular go'sht suyimi chiqimi bo'yicha katta otlarda 56-57 foizni tashkil etsa, biyalarining sut mahsulorligi laktatsiya davomida o'rtacha 1600 litrni tashkil qiladi (aholi xonadonlarida ba'zi biyalardan 1800 litrgacha sut sog'ib olingan). Qorabayir jahon ot seleksiyasining oltin fondiga kiritilgan. O'zbekiston hududida tizimli ravishda qorabayir ot zavodini tashkil qilish tarixi 1921-yidan boshlanadi. Ushbu zavod yaylov yilqichiligi boylaridan musodara qilingan hamda dehqonlardan sotib olingan biyalar hisobiga shakllantirildi. Zavoddagi biyalarining nasl o'zagi asosan sobiq Buxoro amirligining yaylovda boqiladigan, elita sinfiga mansub qorabayir biyalari bo'lgan. Zavodda o'sha paytda qimmatli nasl xususiyatiga ega bo'lgan ayg'irlardan 2 bosh mashhur naslli ayg'ir alohida ahamiyat kasb etgan: Birinchisi, "1a Uyuli" - 1923-yilda Moskvada o'tkazilgan sobiq Butumittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida namoyish etilgan naslli ayg'ir. Ikkinchisi, "2a Cho'yan" - 1916-yilda biyalarni qochirishda foydalanish uchun

G'arbiy frontdan orqaga qaytarilgan mashhur tulpor. Ot zavodida "2a Cho'yan"dan "Chars" laqatli naslli ayg'ir tug'ilgan. "Chars" qimmatli xususiyatlarga ega bo'lgan biyalar oilasining zavod tipidagi urug'boshisiga aylandi, Bular: Galat (onasi Gaydamachka), Tagder (onasi Tiberda), Uarda (onasi Uynash), Nichya (onasi Naymichka). Shuningdek, "Chars"dan Kamira (onasi Kum-Kul) va Lo'li (onasi Liniya) tug'ilgan. "2a Cho'yan" laqatli naslli ayg'irdan ushbu zavodda juda ko'p avlodlar olingan.

Qorabayir ot zavodida boshqa zotdorlikdagi axaltaka zotli va uning duragay avlodlari - anglo-axaltaka, axaltaka-qorabayir va anglo-axaltaka-qorabayir naslli ayg'irlardan ham keng foydalanilgan. Ushbu naslli ayg'irlar orasida 04 Baydak, 08 Golden-Tush, 023 Kara-Solar, Suyun-Podon, 1924-yilda yetishtirilgan 198 Posman-Xalli, 044 Tilla-Qush, Urazxon va Turkmanistonning axaltaka zot liniyasiga mansub bo'lgan 2a Boynou, Ulaq (2a Boynou uning o'g'li, onasi Krasavitsa, qora to'riq tusli) va boshqalar qorabayir zot otlarining shakllanish tarixida alohida o'rinni egallagan.

Ot zavodi otlarining asosiy nasl xususiyati qimmatli bo'lgan qismi - zotdor biyalar va naslli ayg'irlar naslchilik ishi, oziqlantirish va saqlash sharoitlari talab darajasida bo'lgan 68-Toshkent ot zavodiga ko'chirilgan. Bu yerda qisqa vaqt ichida qorabayir zot otlarini takomillashtirishga hamda uni rivojlantirishga salmoqli ravishda ijobiy ta'sir ko'rsatadigan qimmatli otlar guruhlari shakllantirildi. 1931-yilning 28-sentabr kuni naslli ayg'irlar, asosiy zotdor biyalar va qulnlari vaqtinchalik shakllantirilgandan so'ng, yangi tashkil qilingan Jizzaxdagi 76-ot zavodiga ko'chirildi. Ushbu ot zavodida otlar tabiiy yaylov sharoitida saqlanib, asosan salt miniladigan otlarni ko'paytirish va uyurni qayta tiklash yo'nalishida faoliyat yuritgan hamda maxsus naslchilik bo'limiga ega bo'lgan.

1931–1932-yillar davomida mazkur ot zavodiga yaqin hududlardagi aholidan saralangan biyalarni va ijtimoiy o'zgarishlar davrida boylardan musodara qilingan biyalarni sotib olish hamda Toshkent ot zavodidan naslli otlarni keltirish hisobiga guruhlar shakllantirildi. Shunday qilib, ot zavodidagi otlar tarkibi tarixan quyidagi to'rtta manbadan iborat bo'lgan: 1) Sobiq Buxoro amirligining yaylovlaridagi sof qorabayir zotli biyalar; 2) Sobiq Qorabayir ot zavodidan Toshkent ot zavodiga va undan yana Jizzax ot zavodiga ko'chirilgan biyalar; 3) Kelib chiqishi noma'lum bo'lgan qorabayir biyalari, boylardan musodara qilingan biyalar va ot zavodi tashkil qilinishidan bir yarim yil oldin aholidan sotib olingan biyalar; 4) Qorabayir va Toshkent ot zavodlaridagi boylardan musodara qilingan biyalardan olingan avlodlar.

Buxoro amirligi yaylovlaridan keltirilgan qorabayir biyalari guruhi o'zining zotdorligi, mustahkamligi va o'rtacha tana tuzilishi (qarchig'ay balandligi 147 sm gacha) bilan ajralib turgan. Ushbu otlarning boshi yengil, suyakdor, sag'rini to'g'ri, salt minishga mos bo'lgan. Bu guruhdagi biyalardan: 82 Bandi, 115 Bulut, 193 Julfa, 352 Ko'k-Gul, 357 Kum-Kul, 560 Sari-Ko'k biyalari qimmatli tarixiy va nasliy ahamiyatga ega bo'lgan.

Eksteryer ko'rsatkichlari yaqin bo'lgan, lekin kelib chiqish shajarasini qayta tiklash imkoniyati bo'lmagan Qorabayir ot zavodi biyalari guruhida esa 135 Gaydamachka, Groza, 184 Jeran, 318 Kassam, 550 Sayga, Tina, Flora kabi biyalar qimmatli hisoblangan. Aholi xonadonlaridan sotib olingan qorabayir biyalari eksteryeri to'g'ri shakllangan bo'lib, yirik tana tuzilishiga ega (qarchig'ay balandligi 150 sm-dan yuqori) bo'lgan. Bu biyalardan ko'pchiligi yuqori pushtdorlik xususiyatiga ega ekanliklari bilan ajralib turgan. Ularning ichida eng mashhurlari: 71 Aelita, 144 Gibel, 145 Girlyanda, 381 Ladya, 386 Lipa, 462 Nega, 513 Polin va boshqalar edi. Ot zavodining naslchilik bo'limi tomonidan saralangan biyalarining (n=106) o'rtacha o'lchov ko'rsatkichlari zootehnika va tarixiy hujjatlarda quyidagicha qayd etilgan: qarchig'ay balandligi – 146,2 sm; ko'krak chuqurligi – 68 sm; ko'krak eni – 38 sm; tananing qiya uzunligi – 147,9 sm; ko'krak aylanasini – 171,7 sm; kaft aylanasini – 18,8 sm, tana indekslari (%): kenglik indeksi – 117,4, to'lishganlik indeksi – 101,2 va suyakdorlik indeksi – 12,86 % ni tashkil qilgan.

Mazkur ot zavodi 1932-yilda 600 bosh qorabayir zotli otlar bilan to'liq shakllantirilgan va shu yildan boshqa chetdan ot

so'tib olinmagan. Otlar bosh sonini ko'paytirib borish asosan ichki imkoniyatlar - olingan qulunlar hisobidan amalga oshirilgan.

1932–1939-yillarda zavod naslchilik bo'limiga ega bo'lgan yaylov-qayta tiklash ot zavodi sifatida faoliyat olib borgan. Shuning uchun dastlabki yillarda qorabayir zotli ayg'irlarga qaraganda salt miniladigan sof qonli, arab va axaltaka zot ayg'irlaridan naslchilikda keng foydalanilgan. Eng ko'p avlodlar sof qonli 757 Groga, 152 Purkua-Pa va 180 Spartak ayg'irlaridan olingan.

Toshkent ot zavodida tug'ilgan yuqori qonli anglo-qorabayir naslli ayg'irlaridan Boets (243 Barbye – V 145 Bella), Bubenchik (716 Bunchik – 01 Baletta), Jil (716 Bunchuk – 09 Jilberta), Madar (66 Dago – 0116 Miledi), Mig (180 Spartak – 0116 Miledi), Partizan (152 Purkua-Pa – 019 Paola), Saper (117 Markoni – 0312 Sirena), Skeptik (180 Spartak – V 358 Bagira) qimmatli nasl xususiyatiga ega bo'lgan.

Jizzaxdagi 76-ot zavodi faoliyatining dastlabki yillarida 41 Bek-Nazar va 2814 Yulduz laqabli axaltaka zotli, 042 Syurpriz laqabli (½ sof qonli va ½ axaltaka) anglo-axaltaka duragayi, 044 Tilla-Kush (¼ sof zotli, ¾ axaltaka), ayniqsa, 023 Kara-Salor (¼ sof zotli, ¾ axaltaka), shuningdek, uning o'g'illari: 03 Kair va Qora-Quyun, 07 Qora-Sulu, 08 Karat, 09 Kars, juda qimmatli nasl xususiyatiga ega bo'lgan 010 Koxinur, uning nabiralari Kara-Salor – 02, Dost va 023 Talisman, axaltaka-qorabayir duragayi bo'lgan 012 Kubla-Yulduz, 019 Sezam, 020 Selim va eng mashhur urug'boshi 024 Ulug'-Bek laqabli naslli ayg'irlardan foydalanilgan.

1935–1936-yillarda ushbu ot zavodiga 4 bosh toza qonli arab zotli ayg'irlar keltirilgan, bular: Adye (och ko'k, 1926-y., (Shagiya – Shagiya)), Bag'dod (och ko'k, 1931-y., (Siglavi-Bag'dodi – Siglavi-Bag'dodi)), Jak (to'riq, 1933-y., Jebel – Musa – Jerba), Damashq hamda 6 bosh anglo-arab: Kamlosh (to'riq, 1932-y., (Bekenchib - Rotka)), Lbmen (1933-y., Monsekrik - Foli), Lyutan (saman, 1933-y., (Lotus – ren-de-Pre)), Moti (ko'k, 1932-y., (Shagiya – Vilma)), Paykash (1933-y., (Shagiya – Sellyu)) va Furi (1926-y., (Shagiya – Marga)) laqabli ayg'irlardir. Arab zotli ayg'irlardan 1936–1949-yillar davomida foydalanilgan. Eng qimmatli nasl xususiyatiga ega Bag'dod va keyinchalik keltirilgan Sitseron 234 (och ko'k, 1932-y., (S 336 Silindr – Ter.43 Tsarevna)) laqabli ayg'irlardan 1941–1948-yillar davomida naslchilikda samarali foydalanilgan.

Muhokjama. Olib borilgan seleksiya-naslchilik ishlarining samaradorligi tufayli 1939-yilda Jizzaxdagi 76-ot zavodiga rasman naslchilik xo'jaligi (zavodi) maqomi berilgan va

otlarning sifatini yaxshilash maqsadida umumiy bosh soni 700 boshdan 400 boshga qisqartirilgan. Ot zavodida sof qonli salt miniladigan Groga, anglo-qorabayir Madara va Miga, arab zotli Bag'dod va Jak hamda Sitseron laqabli ayg'irlardan foydalanish davom ettirilgan.

Olib borilgan tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qorabayir otlarini ko'paytirishda sof zotli urchitish uslubi har doim ustuvor bo'lgan, lekin yuqori nasl qiymatiga ega sof qorabayir ayg'irlarini topish o'tgan asrning o'rtalarida katta muammo hisoblangan. Muammoning yechimi sifatida mutaxassislar o'zidagi va tashqaridagi eng yuqori genetik imkoniyatli nasldor otlardan foydalanishgan.

O'tkazilgan bonitirovka (baholash) natijalariga asosan, o'tgan asrning 30–50-yillarida Qorabayir zot otlarining Davlat naslchilik kitobining (DNK) I va II tomlari hamda 1960-yilda III tomi chop ettirilgan. Shuningdek, Qorabayir zot otlarining Davlat naslchilik kitobining oxirgi IV tomi respublikamizdagi ot zavodlarida 1971–1973-yillarda o'tkazilgan bonitirovka ma'lumotlari asosida 1982-yilda chop etilgan va shu bilan kitobning yuritilishi to'xtab qolgan. Davlat naslchilik kitobi (DNK) - seleksiya-naslchilik ishlari uchun eng muhim hujjat bo'lib, u ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish, nazorat qilish va tizimlashtirish bo'yicha asosiy zootehnika va tarixiy tadbir hisoblanadi.

Xulosa. Tarixiy-genezis tahlillar va arxiv materiallari shuni yaqqol ko'rsatadiki, qorabayir ot zoti shunchaki chorvachilik tarmog'i emas, balki asrlar davomida shakllangan o'zbek milliy madaniyati, harbiy san'ati va xalq seleksiyasi tafakkurining buyuk moddiy yodgorligidir. Tabiiy ehtiyojlar va o'lkaning o'ta murakkab iqlimiy omillari ta'sirida sinalgan ushbu tulporlar ham salt minish, ham og'ir xizmat turlarida o'zining tengsiz ekanligini tarix sahnasida isbotlay olgan.

O'tgan asrning 20-30-yillarida sobiq Buxoro amirligi va mahalliy voha xonadonlarining eng sara elita guruhlari zoti negizida vujudga kelgan Jizzax ot zavodi qorabayirning hozirgi genetik qiyofasi va irsiy poydevorini belgilab bergan eng asosiy tarixiy o'choq hisoblanadi. Ajdodlarimizning ko'p asrlik tajribasi bilan sayqallangan ushbu milliy boylikni va uning noyob biologik genofondini sof holda saqlab qolish, unutilayozgan Davlat naslchilik kitoblarini zamonaviy uslubda qayta tiklash hamda qorabayir otlarining barqaror nasl o'tkazish (propotentlik) qobiliyatini xalqaro miqyosda qaytadan namoyish etish bugungi kun yilqichilik tarixi, seleksiya va agrobiologiya fanlari oldida turgan eng ustuvor va muqaddas vazifadir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3057-son qarori. Toshkent, 2017-yil 15-iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2017–2021-yillarda yilqichilik va ot sportini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-517-son qarori. Toshkent, 2017-yil 19-iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4194-son qarori. Toshkent, 2019-yil 18-fevral.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5024-son qarori. Toshkent, 2021-yil 11-mart.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025-yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5211-son qarori. Toshkent, 2021-yil 5-avgust.
6. Xolmirzayev D. Qorabayir – otlarning sarasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil 20-aprel.
7. Амин М. Карабаирская порода лошадей // Зооветеринария. 2008 г. №3. С.38
8. Калашников А.П., Клейменов Н.И., Бакланов В.Н. и другие. «Нормы и рационы кормления сельскохозяйственных животных». М., Агропромиздат, 1985, с. 189-222.
9. Лихов и др. Государственная племенная книга лошадей карабаирской породы. Том IV, Ташкент, «Узбекистан».
10. Самибеков Р.В. Кормление лошадей. В кн. "Выращивание, тренинг и испытания верховых лошадей". Ташкент, 2000, С. 26-34.
11. Shchekin V.A. O'rta Osiyo otchilik tarixi va qorabayir zoti genofondi. Toshkent: Fan, 1954. – 142 b.
12. Vixrev V.S. Jizzax davlat ot zavodida naslchilik ishlarining shakllanishi va rivojlanishi // O'zbekiston chorvachilik jurnali. 1968. №4. – B. 12-17
13. Dmitriyev N.G., Ernst L.K. SSSR xalqlarining hayvonlar genetik resurslari. Rim: BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), 1989. – 412 b.
14. Nurmatov A.A., Xafizov I.I. Qorabayir ot zoti – O'zbekistonning "oltin fondi" // Ilimiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 2024. – B. 70-74.